

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823530>

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA AYOLLAR HUQUQLARI

**Ulug‘bek Rahmanov Xabibullayevich**

“Qishloq xo‘jaligi huquqi va agroturizm” kafedrası mudiri

Email: [ulugbekrahmanov@umail.uz](mailto:ulugbekrahmanov@umail.uz)

**Jo‘rayeva Farangiz Bahrom qizi**

Yurisprudensiya yo‘nalishi talabasi

Email: [farangizjorayevaaa@gmail.com](mailto:farangizjorayevaaa@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilish va uni jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish, shuningdek, Gender tenglikni o‘rnatishga qaratilgan islohotlar hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, ijtimoiy himoya, harakatlar strategiyasi, ayollar huquqlari, qonuniy manfaatlar, ijtimoiy imtiyozlar.*

### KIRISH

Ayollar va qizlar yer shari aholisining teng yarmini tashkil qiliadi. Bu sayyoramiz salohiyating teng yarmi deganidir. Ya’ni, insoniyat hayotida nimaiki sodir bo‘lsa yo bo‘lmasa, uning yarmi ayollarga bo‘g‘liq-ularning ishtiroki yo ishtiroksizligiga. Shu sababli ham ayollar huquqlarini ta’minlash va gender tenglik masalasi insoniyatning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Zero, bu jamiyatda tinchlik, uyg‘unlik, insoniy potentsiallik to‘liq amalga oshirishi va barqaror rivojlanishiga doir masaladir. O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini ta’minlashga qaratilgan zarur chora tadbirlar ko‘rilmoqda. Binobarin, bu yuritilayotgan imkoniyatlar jamiyatda ayollarning o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashdigan, yuksak marralarni zabt etadigan teng huquqli jamiyat qurishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, ularning salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta’lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida Milliy Markaz tashkil qilindi. Uning maqsadi: xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash,

onalik va bolalikni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish; xotin-qizlar orasida tazyiq, zo'rovonlikka uchrash hamda odam savdosining qurboni bo'lish holatlarining oldini olish; xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish hamda ularni ilm-fan sohasiga jalb qilish. Natijada, oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda kunduzgi, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlari to'lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish yo'lga qo'yilib, ushbu maqsadlar uchun bugungi kungacha 139 mingdan ortiq talaba xotin-qizlarga 1 trln 300 mlrd so'm miqdorda foizsiz ta'lim kreditlari berildi.

### **Usullar va manbalar**

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Suqrot, Arastu, Aflotun, kabi yunon faylsuflari tenglik xamda adolat hukm surgan ideal jamiyat va davlat haqida mushohada yuritar ekanlar, ayollar, va erkaklar huquqlarining teng ta'minlanishi masalasiga alohida to'xtalganalar. "Eng yaxshi qonunlar-barchaning tengligini kafolatlagan qonunlardir" degan g'oyani ilgari surar ekan, yunon olimi Antifont ta'kidlaydi: "Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi".[1]

O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlarning haqorat qilinishining oldini olish maqsadida Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMT ning "Xotin-qizlarni kamsitishga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasiga qo'shildi. Jamiyatda ayollar teng huquqli bo'lishi uchun bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Masalan, Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta'minlash masalalari bo'yicha Komissiya tuzildi. Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va Gender tenglik masalalari Qo'mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari hal qilish bo'yicha Komissiyasi o'z faoliyatini boshladi. [2] O'zbekiston Respublikasida barcha fuqorolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Baxtimiz qomusi hisoblangan Konstitutsiyamizning 14-bobi "Oila" deb nomlangan va oila, onalik va bolalikni himoya qilishga bag'ishlangan. Erta nikoh tuzilishining oldini olish maqsadida Fuqorolik kodeksning 15- moddasida erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi o'n sakkiz yosh deb belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki ayollarni erta turmushga berishga yo'l qo'yilmaydi.[3] O'zbeklar hayotida ayollar qadimdan hamisha e'zozlanib, qadrlanib kelingan. Mustaqillikka erishilgan keyin ham, avvalgi an'analarga sodiq qolgan holda, bu masalaga alohida e'tibor qaratildi.

### **NATIJA**

O'zbekistonda 1998-yil "Oila yili", 1999- yil " Ayollar yili ", 2012-yil " Mustahkam oila yili", 2016-yil " Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi, shuningdek, 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-2021 yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha “Harakatlar strategiya”sining qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada aniq maqsadga yo‘naltirilgan izchil siyosatni rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlar va yangi bosqichda olib borishiga yo‘l ochildi. Bugungi kunga kelib xotin-qizlar faolligini oshirish va himoyasini ta‘minlashda quyidagilar bu siyosatning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

Ayollar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari bajarilishini ta‘minlash hamda bu boradagi huquqiy asosni yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish;

Ayollar bandligini ta‘minlash yuzasidan samarali choralar ko‘rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirishda har tomonlama yordam ko‘rsatish, ayollar o‘rtasida ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish. [4] Ayollarga ko‘plab ijtimoiy imtiyozlar joriy qilindi. Jumladan Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muommolarini aniqlash, bartaraf etish va nazorat olib borish bo‘yicha “ayollar daftari” tashkil etilgan. Bu esa o‘z o‘rnida ayollarning bandligini ta‘minlash, ularga moddiy yordam ko‘rsatish, turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash, ularga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatishni ta‘minlashga yordam berdi. Bundan ko‘rinib turibdike ayollarga imkoniyatlar ko‘p. O‘zbekistonda ayollar huquqlarini kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan.

### **MUHOKAMA**

Inson huquqlariga oid 100 ga yaqin qonunlarimizda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli e‘tirof etilgan. O‘zbekistonda xotin-qizlarni e‘zozlash, jamiyatdagi rolini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Shu maqsadda xotin-qizlar manfaatini ifodalovchi qator huquqiy islohotlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997-yil 30-avgustdagi “ Bir xil qiymatga ega bo‘lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag‘batlantirish to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida”gi 493-sonli hamda “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida” 501-sonli qarorlar qabul qilindi. Prizedentimiz Gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettirilishi haqida so‘z yuritdi va ularni amalga oshirish maqsadida O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes forumini o‘tkazishni rejalashtirayotgani haqida so‘zladi. [5] Jamiyatda ayollar rolini oshirish uchun asosan

diniy va dunyoviy fanlar chuqur o'qitiladigan xotin-qizlar maktablar tashkil qilish kerak va bundan tashqari ularning ta'lim olishi uchun ko'plab imkoniyatlar berish kerak. Masalan, imtoyozli tartibda xorijiy davlatlarda o'qish imkoniyatini yaratib berish kerak shuningdek, ayollarning vaqtini samarali o'tqazish maqsadida bo'sh ish o'rinlarini yartish, tadbirkorlik qilish uchun kreditlar ajratish, ularning uy-joy olishlari uchun turli xil subsidiyalar tashkil qilinishi kerak.

**Xulosa** o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jamiyatda ayollar rolini oshirish, ularni turli xil tazyiqlardan himoya qilish maqsadida kun sayin ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar natijasida, xotin-qizlarning huquq erkinliklari himoya qilinmoqda va turli sohalarda ishlashga imkoniyatlar yaratilmoqda. Biz buni ta'lim, fan, madaniyat, san'at sohasida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida senatorlik lavozimida o'z faoliyatini olib borayotgan Tanzila Kamalovna Narbayeva misolida ko'rishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Sh. Soatova, F. Tojiyeva Ayollarga xuquqiy madad. T-2021, 7-9-betlar*
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markaz T: 2023.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: 2019.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami) T: 2017.* 4. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar muommolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2022.*
5. *Q.X. Abdurahmonov. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. T:2010.* 6. *Sh.M. Mirziyoyev. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasi. 2021.*